

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53409-3.20

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

O'zbekiston Respublikasi

Oliy va o'rta maxsus

ta'lim vazirligi

"8" iyul 2003 y.

**MUTAXASSISLIKKA KIRISH
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340900 - "Buxgalteriya
hisobi va audit" bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: prof. Sotivoldiev A. S.,
prof. Xasanov B. A.

Taqrizchilar: dots. Mamatov Z. T.,
dots. Bozorov Q. T.

O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlari sharoitida kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilishi, qator qonunlar va davlat dasturlarining qabul qilinishi, oliy ta'lim sohasida chuqur islohotlar olib borilishiga zamin yaratadi. Namunaviy dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limining Davlat ta'lim standartlari asosida yaratildi.

"Mutaxassislikka kirish" fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlari talablari asosida tuzilgan bo'lib, jami 6 bo'limdan iborat.

Ushbu bo'limlarda "Mutaxassislikka kirish" fanining maqsadi, vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi, DTSga muvofiq bilim va ko'nikmalar, amaliy va seminar darslari bo'yicha ishlarning minimal miqdori, kompyuter va informatsion texnologiyalarni qo'llash, fan dasturi, amaliy va seminar mashg'ulotlari, kurs ishi mavzularining ro'yxatlari, tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ko'rgazma-namoyish materiallari, o'quv filmlar va boshqa didaktik materiallar ro'yxati, talabalarning reyting asosida baholash bo'yicha o'zlashtirishning nazorati hamda adabiyotlar ro'yxati o'z ifodasini topgan.

В условиях рыночной экономики в Республике Узбекистана особое внимание уделяется подготовке кадров способных работать в рыночных условиях хозяйствования. Этому свидетельствует принятие ряд законов и государственных программ по реформированию системы образования.

Настоящая учебная программа составлена в соответствии с требованиями Государственных стандартов образования Республики Узбекистан в ней отражены цель и задачи предмета, связь с остальными предметами, знания и навыки соответствующие СГО, минимальное количество семинаров и практических занятий, применение компьютеров и информационной техники, семинарские занятия, список тем курсовых работ, наглядно-показательные материалы по рекомендуемым темам, список учебных фильмов и других дидактических материалов, контроль успеваемости студентов по рейтинговой системе и список используемой литературы.

The created program of the "Spezalition exit" subject - completely answers all put requirements. The program consists of 6 parts. They contain the following items:

The purpose and task of a subject, communication with other subjects, knowledge and skills appropriate to the SSE (Standards of State Education), minimum quantity of seminars and practical employment, application of computers and technological information, program of the subject, seminar lessons, the list of themes of "course works", evident - indicative materials on recommended themes, the list of educational films and other materials, control of progress of the students on a rating system and list of the literature for usage.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSH

Respublikamiz Prezidentining "Ta'lim-tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risida"gi Farmonida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy Dasturni hayotga tatbiq etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanligi qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgust 343-sonli Qaroriga muvofiq oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari tasdiqlandi.

Mazkur standartlar bo'yicha har bir o'qitiladigan fanlardan o'quv dasturlar tayyorlash vazifasi qo'yilgan. "Mutaxassislik kirish" fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur Davlat ta'lim standartlari talablari asosida tuzilgan.

Bakalavrlar "Mutaxassislikka kirish" fani bo'yicha qo'yidagilarni bilishi zarur:

- hozirgi zamon rivojlangan iqtisodiyotida mutaxassislikning o'rni va ahamiyati;
- iqtisodiy soha kadrlarini tayyorlashda ijtimoiy fanlarning roli;
- bozor iqtisodiyoti qonunlarini mukammal o'rganish;
- ilmiy-pedagogik kadrlar va ularning malakasini oshirish;
- o'kuv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi.

Mazkur fanni o'rganish uchun bakalavr iqtisodchi Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan quyidagi fanlar bo'yicha atroflicha bilimlarga ega bo'lishi lozim: "Fanlarning falsafiy masalalari", "Ilmiy ijodiyot metodologiyasi", "Amaliy chet tili", "Axborot texnologiyalari", "Ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti", "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi", "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat", "Byudjet hisobi

va hisoboti", "Investitsiyalar auditi va ularni baholash", "Tashqi iqtisodiy faoliyat va valyuta operatsiyalari hisobi" va boshqalar.

O'quv fani bo'yicha bilim, ko'nikma va mahoratga qo'yiladigan talablar

Mazkur yo'nalishda ta'lim oladigan tinglovchilarga "Mutaxassislikka kirish" fani bo'yicha chuqur bilim olish va etuk mutaxassis bo'lib etishishlari uchun quyidagi talablarni bilish zaruriyat qilib qo'yiladi: oliy maktabda o'qishning xususiyatlari, nazariy ta'lim bilan amaliy ta'limning bog'liqligi, o'quv dasturi va kalendar-tematik rejalar, dasturiy o'qitish, ilmiy-tadqiqot ishlari, talabalar ilmiy tahlil byurosi, malakaviy ishlar tanlovi, milliy mafkurani egallash va ilmiy dunyoqarash, milliy mafkuraviy tarbiyaning metodlari, vositalari va tashkiliy shakllari, talabaning asosiy huquq va burchlari, - turmush gigienasi, sport-sog'lomlashtirish tadbirlari.

O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliy ko'nikmalar uzviyligiga erishish, tinglovchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, ular uchun imkon qadar mustaqil bilim olishga sharoit yaratib berish lozim.

Fanni o'qitish semestrlari bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar

"Mutaxassislikka kirish" fani ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada o'rgatiladi. Talabalarning auditoriyada va amaliyotda olgan bilimlari reyting usulida o'qituvchilar hamda belgilangan hay'at a'zolari tomonidan og'zaki va yozma usullarda baholanadi.

Umumiy va o'quv ishlari bo'yicha hajmi

Oliy ta'limning davlat standartlarida "Mutaxassislikka kirish" fani uchun jami bo'lib 54 soat ajratilgan. Shundan ma'ruza 18 soat, amaliy mashg'ulot 18 soat va mustaqil ta'lim 18 soat.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

Tinglovchilarga fanni zamonaviy usulda o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olingan bilimni mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi:

- tinglovchilarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish;
- tinglovchi o'z bilimni o'zi baholaydigan sharoitni yaratib berish;
- tinglovchilarning bilimni tayanch iboralari asosida baholashni joriy qilish;
- tinglovchilarni kichik guruhlariga bo'lib, o'qituvchilar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish;

- iqtidorli tinglovchilar bilan ularni qiziqtiruvchi mavzular bo'yicha qo'shimcha darslarni tashkil qilish va hokazo.

"Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismlari bo'lmish o'quv maqsadi va vazifalari katalogini ishlab chiqish, o'quv maqsadlariga erishish; rejalashtirilgan maqsadlarni bajarilishini baholash; tayanch iboralariga asoslangan nazorat ishlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

2. FAN DASTURI

Ma'ruza mashg'ulotlarining namunaviy mavzulari

O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi va uning oliy ta'lim tizimiga ijobiy ta'siri. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va madaniy rivojlanishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining demokratik jamiyat qurilishidagi etakchilik roli. O'zbekiston Respublikasining moddiy-texnik bazasini yaratish va oliy maktab oldidagi vazifalar.

Oliy ta'limning mohiyati, asosiy xususiyatlari va O'zbekistonda uning rivojlanish bosqichlari. Hozirgi sharoitda xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun kadrlar tayyorlash tizimida oliy ta'limning tutgan o'rni va roli.

Xalq xo'jaligi uchun mutaxassislar tayyorlash tizimida iqtisodiy ta'lim. Prezidentimiz iqtisodiy siyosatining asosiy yo'nalishlari, iqtisodiyot sohalari uchun kadrlar tayyorlash borasidagi sa'iy-harakatlari.

Toshkent moliya instituti

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy ta'limning rivojlanishi va Toshkent Moliya institutining tashkil etilishi. *Institut rivojlanishining asosiy bosqichlari, talabalar tarkibining o'sishi, moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishi.* Ilmiy-pedagogik kadrlar, ularning malakasini oshirilish.

Institutdagi o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, ta'lim-tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlari. Institutning tarkibiy tuzilishi. Rektorat, fakultetlar va kafedralar, ularning faoliyati. Institut Ilmiy Kengashi, fakultetlar kengashi va ular faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Laboratoriyalar va institutning boshqa bo'linmalari. Kasaba uyushmasi va boshqa jamoat tashkilotlarining strukturaviy tuzilishi, asosiy vazifalari.

Oliy maktabdagi o'qish jarayonini tashkil etishning ilmiy asoslari

Oliy maktab ta'limining xususiyatlari va umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonidan farqi. *Oliy iqtisodiy ta'limning mazmuni.* Institutda

kadrlar tayyorlash bo'yicha ixtisosliklar. Ixtisosliklar bo'yicha institutning o'quv rejalari va ularni takomillashtirish. Nazariy va amaliy ta'lim uzviyligi.

Iqtisodiyot sohasi kadrlarni tayyorlashda ijtimoiy fanlarning roli. Iqtisodiy fanlar tizimi, iqtisodchilarni matematik tayyorlash. Umumilmiy fanlar va ularni o'quv rejasida tutgan o'rni.

O'quv dasturining talabalar tomonidan o'zlashtirilishi. Kalendar-texnik rejalar va o'quv mashg'ulotlari jadvali.

Talabalarning o'quv va mustaqil ish jarayonida texnik vositalardan foydalanishi. Dasturiy o'qitish. O'quv jarayonini ilmiy tashkil etishda EHMLardan foydalanish.

Birinchi kurs talabalari bilan olib boriladigan o'quv, ilmiy va tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlari.

Oliy maktabda o'qitishning asosiy shakllari

O'quv mashg'ulotlarning asosiy turlari. Ma'ruza va uning o'quv jarayonidagi etakchi roli. Ma'ruzani tinglash va yozib olish. Ma'ruza va dastlabki adabiyot manbalari. Ma'ruza va darslik, talabalarning mustaqil ishlari. Seminar, amaliy mashg'ulotlar, imtihon.

Seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, ularning mohiyati va ahamiyati. Seminar va boshqa mashg'ulotlar o'tkazish shakllari. Talabalarning seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish usullari. Seminar darslarida chiqishlar qilish.

Kurs ishlari va loyihalar, ularni yozish usuli. Maslahatlar, ularning shakllari va o'qish jarayonidagi roli. Talabalarning ishlab chiqarish amaliyoti, iqtisodiy bilim yurtlarida uni tashkil etish xususiyatlari.

Imtihonlar, sinov imtihonlari. Reyting usuli va uning ahamiyati. Talabalarning bilimiga qo'yilgan asosiy talablar. Talabalarni yakuniy baholash va reyting nazoratiga tayyorlanish usullari.

Mustaqil ish va talabalar mehnatini ilmiy tashkil etish

Mustaqil ish - yuqori malakali kadrlar tayyorlashning asosiy usuli. Hozirgi sharoitda talabalarning mustaqil ishining rolini oshirish. Mustaqil ishning mohiyati va shakllari. O'quv jarayoni va mustaqil ish. Mustaqil ishni rejalashtirish va me'yorlashtirish. Uy vazifalarining uzluksizligini, ketma-ketligi va murakkabligini inobatga olish – mustaqil ishni ilmiy tashkil etishning asosiy shartlaridir.

Talabaning vaqt byudjeti va ish kuni, ulardan samarali foydalanish. Aqliy faoliyatning sermahsul rejasi.

Talabaning mustaqil ishi ustidan nazoratni tashkil etish, uning ahamiyati va shakllari. Joriy baholashning xususiyatlari. Talabalar attestatsiyasi, uni tashkil etish va o'tkazish.

Talabalarning aqliy faoliyatini tashkil etish usullari va vositalari. Prezidentimiz I.A. Karimov asarlarini, iqtisodiy adabiyotlarni o'rganish xususiyatlari. Kitoblar bilan ishlash. Konspektlash shakllari, seminarlarga, amaliy mashg'ulotlarga, sinov va imtihonlarga tayyorlanishda ulardan foydalanish.

Talabalar aqliy mehnati gigienasi va madaniyati. Ish qobiliyatini ko'tarish omillari. Bilimlarni o'zlashtirishda e'tibor, xotira, fikrlash va irodaviy fazilatlarni rivojlantirishning ahamiyati.

Samarali dam olishni tashkil etish tamoyillari. Talabaning kun tartibida jismoniy mashg'ulotlarning o'rni.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etish

Yoshlar va fan. Ilmiy-tadqiqot ishlar (ITI)-yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning asosiy omili.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ilmiy-tadqiqot ishlarining ahamiyatini oshiruvchi omillar. Ilmiy-tadqiqot ishlar to'g'risida Nizom.

Institut va fakultetlarda ilmiy-tadqiqot ishlar tizimi va tuzilishi. Ilmiy to'garaklar. Talabalar ilmiy tahlil byurosi. Kafedra, muammoli laboratoriya, xo'jalik shartnomaviy ishlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida talabalar ishtiroki. Xalqaro, Respublika va institut miqyosidagi koferentsiyalarda talabalar ishtiroki. Iqtisodiy fanlar bo'yicha ko'riklar, tanlovlar. Malakaviy ishlar konkursi. Viktorinalar va olipiadalar. Talabalarning ilmiy ishlari va o'quv jarayoni. O'quv-tadqiqot ishlarining shakllari. Kurs ishlari va ishlab chiqarish amaliyoti o'tash jarayonida malakaviy bitiruv ishlarini yozishda ilmiy-tadqiqot ishlari.

Birinchi kurs talabalari orasida ilmiy-tadqiqot, o'quv-tadqiqot ishlarining asosiy xususiyatlari va tashkiliy shakllari.

Talabalarni g'oyaviy tarbiyalash

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini erkinlashtirish sharoitida talabalarni g'oyaviy tarbiyalashning asosiy vazifalari. O'zbekiston talabalari - ulug' ajdodlarimiz vorislari, Vatanimiz himoyachilari va buyuk davlat quruvchilardir.

O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy portreti.

Rektorat, fakultet va jamoat tashkilotlari hamda ijtimoiy kafedralarning talabalarni g'oyaviy tarbiyalashdagi roli. Milliy mafkurani egallash-ilmiy dunyoqarash shakllanishining asosidir. O'zbekiston Respublikasi talabalarining baynalmilal aloqalari, xalq va Vatan oldida o'z fuqoralik mas'uliyatini tubdan sezishi. Mehnat va jismoniy tarbiya.

Mafkuraviy tarbiya metodlari, vositalari va tashkiliy shakllari.

Talabalik jamoasi mohiyati va asosiy belgilari. Jamoaning shakllanishi va talabaning yakka qiyofasi. Guruh murabbiyi.

Talabaning xuquq va burchlari. Turmush va dam olish. *O'quv jarayonini takomillashtirishda talabaning roli*. Talabaning huquqiy me'yor va qoidalari. Institut va fakultetda ichki tartib qoidalar. Talabalarni taqdirlash va jazolash turlari.

Institut mulki va butligi. Reyting daftarchasi va talabalik guvohnomasi. *Prezidentimizning talabalar turmush sharoitlarini tubdan yaxshilash to'g'risidagi chora-tadbirlari*.

Turmush gigienasi. Talabalar uyidagi ichki tartib qoidalar. Ovqatlanish. Aktiv va passiv dam olish. Tibbiy xizmat ko'rsatish. Sport-sog'lomlashtirish tadbirlari. Madaniy sayl va turizm. Badiiy xavaskorlik.

Kasbiy ta'lim muammolari

Iqtisodchi kasbining mohiyati. Bozor iqtisodiyoti sharoitida uning o'rni. xalq xo'jaligining rivojlanishdagi ahamiyati. O'zbekiston Respublikasida iqtisodchi faoliyatining asosiy yo'nalishlari. Teran bilim, mafkuraviy ishonch-professional faoliyat samaradorligining asosiy shartidir.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodchisining professional burchi. Iqtisodchining o'z ishiga sofdil munosabatda bo'lish tamoyillari. Iqtisodchi faoliyatining mas'uliyati va ishlab chikarish amaliyoti uslubi. Iqtisodchining ma'naviy obro'si. Ishbilarmonlik - iqtisodchining asosiy sifati.

Jamoaning ishlab chiqarish faolligini oshirishda iqtisodchining roli.

Ixtisosga qiziqishni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari. Mazkur ixtisos bo'yicha o'qitiladigan fanlar tizimi, ularning hajmi, eng muhim fanning mazmuni va uning tutgan o'rni. Ayrim fanlarni o'rganish xususiyatlari.

Axborot asoslari. Kutubxona ishi va bibliografiya

Ushbu mavzu O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan maxsus dastur asosida o'qiladi. Mashg'ulotlar har bir akademik guruh bilan institutning fundamental kutubxonasi xodimlari tomonidan o'tkaziladi.

3. AMALIY VA SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

O'zbekiston Respublikasida Oliy ta'lim

O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi va uning oliy ta'lim tizimiga ijobiy ta'siri*.

Oliy ta'limning mohiyati, asosiy xususiyatlari va O'zbekistonda uning rivojlanish bosqichlari*.

Xalq xo'jaligi uchun mutaxassislar tayyorlash tizimida iqtisodiy ta'lim.

Toshkent Moliya instituti

Toshkent Moliya institutining tashkil etilishi*.

Institutdagi o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot ta'lim-tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlari.* Rektorat, fakultetlar va kafedralar faoliyati.

Kasaba uyushmasi va boshqa jamoat tashkilotlari.

Oliy maktabdagi o'qish jarayonini tashkil etishning ilmiy asoslari

Oliy maktab ta'limining xususiyatlari va umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonidan farqi.

Iqtisodiy kadrlarning shakllanishida ijtimoiy fanlarning roli*.

O'quv dasturi va o'quv jarayonida talabalar tomonidan o'zlashtirilishi. O'quv jarayonini ilmiy tashkil etishda EHMlarda foydalanish.

Birinchi kurs talabari bilan olib boriladigan o'quv, ilmiy va tarbiyaviy ishlarning asosiy yo'nalishlari.

Oliy maktabda o'qitishning asosiy shakllari

O'quv mashg'ulotlarning asosiy turlari*. Ma'ruza va uning o'quv jarayonidagi etakchi roli.

Seminar amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, ularning mohiyati va ahamiyati.

Kurs ishlari va loyihalar, maslahatlar. Ularning shakllari va o'qish jarayonidagi roli.

Imtihonlar, sinov imtihonlari. Reyting usuli va uning ahamiyati.

Mustaqil ish va talabalar mehnatini ilmiy tashkil etish

Mustaqil ishning mohiyati va shakllari*. O'quv jarayoni va mustaqil ish. Mustaqil ishni rejalashtirish va me'yorlashtirish.

Talabaning mustaqil ishi ustidan nazoratni tashkil etish, uning ahamiyati va shakllari.

Talabalarning aqliy faoliyatini tashkil etishning usullari va vositalari. Bilimlarini o'zlashtirishda e'tibor, xotira, fikrlash va irodaviylikning ahamiyati. Talabaning kun tartibida jismoniy mashg'ulotlar.

Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishini tashkil etish

Yoshlar va ilm-fan. Ilmiy-tadqiqot ishlar (ITI)-yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashning asosiy yo'nalishi*.

Institut va fakultetlarda ilmiy-tadqiqot ishlar tizimi va tuzilishi. Talabalarning ilmiy ishlari va o'quv jarayoni. Kurs ishlari va ishlab chiqarish amaliyotini o'tish jarayonida, malakaviy bitiruv ishlarini yozishda ilmiy-tadqiqot ishlari*.

Talabalarni g'oyaviy tarbiyalash

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida talabalarni g'oyaviy tarbiyalashning asosiy vazifalari*.

Milliy mafkuraviy tarbiyaning metodlari, vositalari va tashkiliy shakllari*.

Talabaning asosiy huquq va burchlari*.

Prezidentimizni talabalar sharoitlarini tubdan yaxshilash to'g'risidagi chora-tadbirlari. Turmush gigenasi.

Kasbiy ta'lim muammolari

Iqtisodchi kasbining mohiyati.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodchisining professional burchi*. Ishbilarmonlik-iqtisodchining asosiy sifati.

Ixtisosga qiziqishni shakllantirishning asosiy yo'nalishlari*.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

Mutaxassislikka kirish fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, o'quv rejasiga muvofiq mustaqil ta'lim oladi.

Mustaqil ta'lim mavzulari va topshiriqlari quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi va uning oliy ta'lim tizimiga ijobiy ta'siri. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va madaniy ijtimoiy rivojlanishi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining demokratik jamiyat qurishdagi etakchi roli. O'zbekiston Respublikasining moddiy-texnika bazasini yaratish va oliy maktabning funksiyalari. O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy ta'limning rivojlanishi va Toshkent Moliya institutining tashkil etilishi. Oliy iqtisodiy ta'limning mazmuni. Oliy maktabda o'qishning xususiyatlari va o'rta maktabdagi o'quv jarayonidan farqi.

Mutaxassislikka kirish fanini o'rganishda talabalar amaliy yordam tariqasida qo'llaniladigan turli xil shakl, chizmalar va slaydlar bilan ta'minlanadi.

Talabalar mutaxassislikka kirish fanini o'rganishda axborot vositalaridan ya'ni, internet tizimidan, jumladan quyidagi sayt va elektron pochtalardan ham keng foydalanadilar:

1. <http://www.iaa.org.uk> (The Institute of Internal Auditors-United Kingdom);
2. <http://www.iasc.org.uk> (International Accounting Standards Committee);
3. <http://www.aicpa.org/index.htm> (American Institute of Certified Public Accountants).

Shuningdek, Respublikadagi chop etilayotgan gazeta va jurnallardan mutaxassislikka tegishli materiallar olinadi. Fan bo'yicha o'zgarishlar, yangiliklar va me'yoriy hujjatlar bilan o'qituvchilar tanishtirib boradi.

Talabalarga O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi, Auditorlar palatasi, Buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent Moliya institutida tayyorlangan o'quv filmlar, didaktik materiallar va multimedik ilovalardan foydalanish tavsiya etiladi.

5. O'ZLASHTIRISH NAZORATI

Talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida joriy baholash, oraliq baholash va yakuniy baholash orqali olib boriladi.

JB va OB turlar va belgilangan ballar miqdori (o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning 70%) o'qitilayotgan fanga mas'ul bo'lgan kafedraning qarori bilan mavzuning murakkabligi va zaruriyligiga qarab quyidagi ishlarga taqsimlanadi:

- bakalavrning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- amaliy va mustaqil ta'lim mashg'ulotlariga tayyorgarlik darajasi;
- fan bo'yicha manbalarni konspektlashtirishi;
- dolzarb mavzu bo'yicha referat yozishi;
- fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlashi.

YaB turiga ajratilgan ballar miqdori, o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 30% miqdorida belgilanadi. Barcha fanlar bo'yicha YaB bosqichi yozma ish usulida o'tkaziladi.

Tayanch iboralarga asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tizimining yakuniy baholash bosqichida "Yozma ish" usulini tatbiq etish bo'yicha Namunaviy nizom" bilan belgilanadi.

Semestr (o'quv yili) davomida o'qitilgan fan bo'yicha 55 foizi va undan yuqori foizini to'plagan bakalavrlar qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55% idan kam ball to'plagan bakalavrlar qoniqarsiz o'qiyotgan (akademik qarzdor) deb hisoblanadi.

6. ADABIYOt

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov. I. A. Yangi uy qurmay turib, eskisini buzmay.-T.: O'zbekiston, 1993.
2. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov. I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda birinchi chaqiriq o'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining o'n to'rtinchi sessiyasidagi mazruza. 1999 yil 14 aprel. -T.: O'zbekiston, 1999.
4. Karimov. I. A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. - T.: O'zbekiston, 1993.
5. Karimov. I. A. Istiqlol va ma'naviyat. -T.: O'zbekiston, 1994.
6. Karimov. I. A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.: O'zbekiston, 1995.
7. Karimov. I. A. Barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - T.: O'zbekiston, 1997.
8. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni 1997 yil.
9. "Ma'naviyat va ma'rifat" ijtimoiy markazi faoliyatini takomillashtirish haqidagi Prezident Farmoni.
10. Boboxonov A. O'zbekistonda pedagogik fikr taraqqiyoti tarixidan. - T.: O'qituvchi, 2001.
11. Sobirov M. Furqatning maktab, maorif va tarbiya haqidagi fikrlari. - T.: O'rta va Oliy maktab, 2001.
12. Donishmandlar tarbiya xususida. - T.: O'qituvchi, 2001.
13. Jan-Jak Russo. Pedagogicheskie sochineniya. Tom I. - M.: Pedagogika, 1996.
14. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. - T.: Fan, 1996.
15. O'zbek pedagogikasi tarixi. - T.: O'qituvchi, 1997.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. - T.: O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari to'plamlari, 1997.
2. Ibragimov A., Karimov A. Xorij sarmoyalari buxgalteriya hisobi. - T.: O'zbekiston, 1999.
3. Plan schetov Buxgalterskogo ucheta i rekomendatsiya po ego primeneniyu. Pod red. Gadaeva E.F., Xasanova N.X. Tashkent - 1996.
4. Frenk Vud. Buxgalterskiy uchets dlya predprinimateley. - M.: O.O.O Askeri, 1996.
5. Yangi schyotlar rejasi. PB va AA-2002.

6. G'ulomova F. Samouchitel po buxgalterskomu uchetu. - T.: Mir ekonomiki i prava, 2000.
7. Pankov D. Buxgalterskiy uchet i analiz v zarubejnix stranax. - Mn: Ekoperespektiva, 1998.
8. Nikolaeva O. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti. - M.: URSS, 2001.
9. Chaya V., Chaya G. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti, GUP IPK "Ulyanovskiy Dom pechati", 2000.
10. Fremgen F.M. Accounting for managerial Analysis: Third Edition. Richard D. Irwing Inc., Homewood, Illions, 1996.
11. Kenneth M. Morris & Allan M. Siegel. Guide to understanding money & investing. 2000 by lightbulb, press, Inc.
12. Securities Regulation in The Unite States. NASD. Washington-2000.